

O'ZBEK XALQI ETNOGENEZI

Po'latova Husnidaxon Odiljon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek xalqining etnologiyasi, uning etnik shakllanish jarayonlari va tarixiy ildizlari tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo hududida qadimdan yashab kelgan turli xalqlar, jumladan, so'g'diylar, baqriyaliklar, xorazmliklar va boshqa turkiy qabilalarning aralashuvi natijasida o'zbek xalqini shakllanishi haqida so'z boradi. Shuningdek maqolada o'zbek xalqining etnogenezi yuzasidan turli olimlarning qarashlari tahlil qilinadi. Maqola o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyati, tarixiy xotirasi va milliy o'zligini anglashda etnologiyaning o'rnini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek xalqi etnografiyasi, so'g'diylar, baqriyaliklar, xorazmliklar, eroniy tilli, A. Y. Yakubovskiy, Rahim Masov.*

Annotation: *This article analyzes the ethnology of the Uzbek people, the processes of their ethnic formation, and their historical roots. It discusses the formation of the Uzbek people as a result of the interaction and blending of various groups that have long inhabited Central Asia, including the Sogdians, Bactrians, Khorezmians, and other Turkic tribes. The article also examines different scholarly perspectives on the ethnogenesis of the Uzbek people. It highlights the role of ethnology in understanding the material and spiritual culture of the Uzbek people, their historical memory, and their national identity.*

Keywords: *Ethnography of the Uzbek people, Sogdians, Bactrians, Khorezmians, Iranian-speaking peoples, A. Yu. Yakubovsky, Rahim Masov.*

Аннотация: *В данной статье анализируется этнология узбекского народа, процессы его этнического формирования и исторические корни. Рассматривается формирование узбекского народа как результат смешения различных народов, издревле проживавших на территории Центральной Азии, включая согдийцев, бактрийцев, хорезмийцев и другие тюркские племена. Также в статье анализируются различные взгляды ученых на этногенез узбекского народа. Работа раскрывает значение этнологии в понимании материальной и духовной культуры узбекского народа, его исторической памяти и национальной идентичности.*

Ключевые слова: *Этнография узбекского народа, Согдийцы, Бактрийцы, Хорезмийцы, Ираноязычные народы, А. Ю. Якубовский, Рахим Масов.*

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashgan murakkab davrda xalqlar va millatlarning tarixiy shakllanishi, ya'ni etnogenez masalalari ba'zi doiralarda soxtalashtirilmoqda yoki inkor etilmoqda. Bunday sharoitda o'zbek xalqi etnogenezining shakllanish bosqichlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb va ayni paytda ziddiyatli masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbek xalqi shakllanishi tarixini o'rganish jarayoni uchta asosiy davrga bo'linadi:

1. Etnogenez bosqichi: bu ibtidoiy qabilalardan boshlab, elat va xalq bo'lib shakllanganigacha qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.
2. Etnik tarix bosqichi: xalqning hududiy va madaniy yaxlitligi mustahkamlanishi.
3. Millat tarixi bosqichi: zamonaviy millat sifatidagi rivojlanish davri.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1924-yilda O'zbekiston SSR tashkil etilgach, xalqning kelib chiqishi masalasi siyosiy tus oldi. 1940-yillarga qadar V. Bartold va Yu. Bregel kabi olimlarning asarlarida o'zbek xalqi faqat XVI asrda Shayboniylar bilan birga kelgan degan tarixga zid qarashlar ustunlik qilgan edi.

1941-yilda A.Yu. Yakubovskiy o'zining "O'zbek xalqi etnogenezi masalasiga doir" risolasida o'zbeklarning ushbu zaminning tub joyli (avtohton) aholisi ekanligini isbotladi. U o'zbek xalqi tarkibida turkiy xalqlar bilan birga mahalliy eroniyzabon etnik birliklar ham qatnashganini, shakllanish jarayoni asosan Qoraxoniylar davrida (XI-XII asrlar) yakuniga yetganini ta'kidladi.

Hozirgi vaqtda o'zbek xalqi etnogenezi bo'yicha olimlar o'rtasida uch xil asosiy yondashuv mavjud:

Birinchi qarash: o'zbek etnosi qadimdan shu zaminda yashab kelgan turkiy qabilalar hamda sug'diy, xorazmiy, baqtriy va sak-massaget kabi guruhlarning uzoq muddatli aralashuvi natijasida shakllangan.

Ikkinchi qarash: o'zbeklar bu hududga so'nggi o'rta asrlarda kirib kelgan Shayboniylar bilan bog'liq. (Bu qarash bugungi kunda ilmiy asosini yo'qotgan).

Uchinchi qarash: akademik A.Yu. Yakubovskiy tomonidan ilgari surilgan milliy avtohtonizm (mahalliylik) nazariyasi.

O'zbek etnografiyasi xalqimizning tarixiy ildizlarini, o'ziga xos urf-odat va marosimlarini, an'anaviy xo'jalik faoliyatini, moddiy va ma'naviy madaniyatini ilmiy o'rganadi. O'zbek xalqi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy etnoslardan biri bo'lib, uning etnografiyasi xalqimizning tarixiy xotirasini va milliy o'zlikni anglashda katta ahamiyatga ega. O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy-etnik jarayonlar mahsuli hisoblanadi. Milloddan avvalgi II- I ming yilliklarda Markaziy Osiyo hududida saklar, massagetlar, so'g'diylar, xorazmiylar, baqtriyaliklar, parfiya va marg'iyonaliklar kabi xalqlar yashagan. Ularning moddiy va ma'naviy merosi hozirgi o'zbek xalqining ildizini tashkil qiladi. Milodiy birinchi ming yillik o'rtalaridan boshlab turkiy qabilalar Markaziy Osiyoga kirib kela boshladi. Ularning ko'pchiligi dehqonchilik vohalariga joylashib, asta-sekin mahalliy aholiga qo'shilib ketdi.

XX asrning 40-yillarigacha xorijiy va sobiq SSSRda tarixchi olimlar o'rtasida o'zbek xalqining etnik tarixi XV-XVI asrdan, ya'ni Movorounnahr hududiga Dashtiqipchoq o'zbeklarining kirib kelishidan boshlanadi, degan fikr hukmron edi. O'rta Osiyo xalqlarining tarixini mukammal o'rgangan olimlarning ko'pchiligi bu fikrga qo'shilmagan. Shunday olimlardan biri taniqli olim, professor A.Y. Yakubovskiy.

A.Y. Yakubovskiy 40-yillarning boshlarida chop etilgan risolasida o'zbek xalqining shakllanishi masalasiga mutlaqo yangicha, ilmiy asoslar bilan yondashadi. U o'z qarashlarida: ko'chmanchi o'zbeklar hozirgi O'zbekiston hududiga kirib kelganda, ular bu yerda yashayotgan turkiy aholini uchratadi. Bu turg'un turkiy aholi ikki daryo oralig'i,

ya'ni Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida eng qadim davrlardan buyon yashab kelayotgan asosan eron tilli xalqlar bilan aralashib qorishish natijasida vujudga kelgan. Dashtiqipchoqdan XV-XVI asr boshlarida ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar mahalliy aholiga qo'shilgan qism bo'lib, unga o'zbek nomini bergan.

A.Y. Yakubovskiyning fikr-mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, o'zbek xalqi hozirgi O'zbekiston hududida Dashtiqipchoq o'zbeklari ko'chib kelmasdan ancha oldin tashkil topgan. Bu xulosasi orqali u, o'sha vaqtlarda hukm surib kelayotgan o'zbek xalqi XV – XVI asrlarda tashkil topgan degan qarashlar noto'g'ri ekanligini aniq tarixiy ma'lumotlar bilan asoslab beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan etnogenetik masalalardagi xato qarashlar qisman A.Y. Yakubovskiyning 1941-yilda chiqqan risolasida qayd etib o'tilgan. Uning 1950-yilda chop etilgan "O'zbekiston xalqlari tarixi"ning ikkinchi jildi uchun yozgan kirish qismida bu masalaga yana qaytib, noto'g'ri fikr-mulohazalardan voz kechib, tarixiy ilmiy asosda tahlil qilish kerakligini aytib o'tadi. A.Y. Yakubovskiyning fikricha, "Xalqlarning tarixi, ba'zan ularning nomlaridan qadimiyroq, masalan, tojiklar va ularning madaniyati "tojik" nomidan ancha oldin mavjud bo'lgan. Huddi shu fikrni o'zbeklar haqida ham aytish mumkin. Ular (o'zbeklar) O'rta Osiyoning markaziy hududlarida qadim zamonlardan buyon yashab kelgan bo'lsalar hamki, etnik (o'zbek) nomini tojiklardan ancha keyin olganlar. Olim fikrini davom ettirib, quyidagilarni aytadi: O'rta Osiyoning o'troq aholi yashaydigan mintaqalarida o'zbek xalqining ajdodlari ko'chmanchi o'zbeklardan bir necha asrlar burun yashab kelganlar, ammo u davrlarda ular o'zbek deb atalmagan edilar. Bu nom (o'zbek nomi) ularga keyin berilgan. Ikki daryo oralig'i va unga tutash mintaqalarda qadimdan yashab kelgan turkiy xalqlarning madaniyati sug'd-xorazm sivilizatsiyasi asosida shakllangan. Shu katta tarixiy davr ichida turkiyzabon turg'un aholi tarkibiga bir qancha qabilalar va xalqlar kirib uning etnogenezi tashkil qiladilar⁴⁸. Demak, "Xalq va uning madaniyati ba'zan nomidan qadimiyroq bo'ladi" degan xulosani aytish mumkin.

O'zbek xalqining etnik tarixi ilk ajdodlari yashagan hudud bilan bog'liq. O'zbek xalqining qadimgi ajdodlari elat bo'lib O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari Movorounnahr, Xorazm, Toshkent vohasi, Yettisuv, Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. Bu mintaqalar insoniyatning qadimgi madaniyat markazlaridan hisoblanadi. Sopollitepa, Chust, Zamonbobo va Xorazmdan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan buyumlardan ma'lum bo'lishicha, miloddan avvalgi II minginchi yillarda O'rta Osiyoda o'troq dehqonchilik mavjud bo'lgan.

Qadimgi yozma manbalar tahliliga ko'ra, neolit va bronza davrlarida O'zbekiston aholisining tubjoy aholisi eroniy tillar oilasining sharqiy lahjalarida so'zlashuvchi so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar va sak qabilalari bo'lganligi ma'lum. Mustaqil O'zbekiston aholisining tili – o'zbek tili esa turkiy tillar oilasiga kiradi. Demak, o'zbeklar ikki xil tilda: sharqiy eroniy va turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning qorishuvidan tashkil topgan etnosdir.⁴⁹

⁴⁸ Yakubovskiy A.Y. "История народов Узбекистана" Toshkent.1950. 8-bet

⁴⁹ Asqarov A. "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" Toshkent 2007. 239-bet

Etnoslarni bir birlari bilan qo'shilib, qorishganligini tan olmaydigan kishilar ham yo'q emas. Ular o'z xalqlarini irqiy jihatdan "toza", ya'ni boshqa xalqlar bilan qo'shilmagan, deb irqchilikni qo'llab quvvatlaydilar. Tojikiston FA akademigi Rahim Masov ham shular jumlasidandir.

Rahim Masov yozadi: "Таджики относятся к орий-ской расе, турки-узбеки к монгольской расе». Fikrini davom ettirib: «не может быть единого корня, этнической общности между народами, вышедшими из совершенно противоположных рас. Более того, считать себя потомками согдийцев, бактрийцев и хоразмцев нету у пришлых народов никаких оснований"⁵⁰.

Rahim Masovning fikricha, tojik xalqi boshqa xalqlar bilan qo'shilmagan toza xalq, o'zbeklar esa mongoloid irqiga mansub kelgindi xalq bo'lganligidan kelib chiqish negizi tojiklar bilan etnik jamoadan bo'lishi mumkin emas. O'zbeklarni so'g'diylar, baqtriylar va xorazmiylarning avlodlari deyishga ham hech qanday asos yo'q.

Rahim Masovning fikrlari haqiqatga to'g'ri kelmaydi albatta. Sababi, xalqlarning qadim davrlardan bir-birlari bilan aralashib, qorishib kelganligi va sof aralashmagan xalqning o'zi bo'lmaganligiga tarixning o'zi guvohlik beradi. Hech bir xalq: "Mening tarixim batamom sof, boshqa xalqlar bilan qorishmagan" deb da'vo qilolmaydi. Undan tashqari tarixdan ma'lumki, Xorazm, Buxoro shaharlari geografik jihatdan hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan. Mening fikrimcha, tarixning o'zi bunga javob beradi.

Har bir ishning boshi va oxiri bo'lganidek, etnogenetik jarayonlarning ham boshi va oxiri bo'ladi. Unday bo'lsa, O'zbek etnogenezi qachon boshlandi? Qachondan boshlab bu xalqlar turkiyda so'zlasha boshlashdi va asosiysi aholi qachon turkiylashdi degan savollarga javob topish kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, dastlab o'zbek etnogenezining ilk nuqtasi turk xoqonligidan boshlandi degan fikr akademik Yakubovskiy tomonidan aytiladi. Keyinroq, akademik S.P.Tolstov tomonidan turkiy etnik guruhlar bizning o'lkalarga ancha avvalroq, antik davrda kirib kelgan, shuning uchun o'zbek etnogenezini antik davrdan boshlash kerak degan fikrni ilgari suradi. Yana akademik A. Asqarov O'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi so'nggi bronza davriga borib taqalishini aytib o'tadi. Demak, bugungi kunda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi so'nggi bronza davri deb aytilar ekan, uning uzil-kesil shakllanishi XI-XII asrlarda yuz berdi.

Etnik jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi fors tilida ham bir qancha asarlar mavjud. Bularning ham eng asosiylari, Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi"⁵¹ asaridir. Bu asar dastlab Narshaxiy tomonidan arab tilida yozilgan va keyinchalik 1128-yilda hozirgi Quva shahrida yashagan al-Quboviy nomli kishi tomonidan fors-tojik tiliga tarjima qilingan.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida O'rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqalishi (VIII asr) va IX – XII asrlardagi Buxoro va Buxoro vohasidagi shahar va qishloqlarning iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy tarixiga oid ma'lumotlar beriladi.

⁵⁰ Rahim Masov. История с грифом. «Совершенно секретно». Dushanbe.1995. 20-bet

⁵¹ Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy "Buxoro tarixi" fors-tojik tilidan tarjima. A. Rasulov. Toshkent,1996.

Asarda yana qadim davrlardan turklarning Buxoro va uning atroflariga kelib joylashishi, Buxoro xalqining tarixi, Turkiston va Yettisuv turklari bilan o'zaro siyosiy va etnik aloqalari, Buxoro aholisining e'tiqodlari, bayramlari, qoraxoniylar sulolasi xonlarining Buxoroda va uning atroflarida qurgan qasrlari qo'riqxonalari haqida va shunga o'xshash bir qancha masalalar yoritilgan. Asarda keltirilgan ma'lumotlar ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlari siyosiy, iqtisodiy, va madaniy hayotini tushunib olishimizga yordam beradi.

“O'zbeklar va Markaziy Osiyo barcha xalqlarining tarixini chuqur o'rganishda V. V. Bartoldning hissasi nihoyatda katta bo'lgan. U sharq xalqlarining tarixi, geografiyasi, madaniyati va etnografiyasiga oid 400 dan ortiq ilmiy ish yozgan va chop etgan. Bularning ko'pchiligi O'rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining etnik tarixiga va etnogeneziga tegishli muhim masalalarni o'z ichiga olgan. V. V. Bartold asarlarining qimmati va afzalligi shundaki, ular dastlabki arab-fors va boshqa manbalar asosida yozilgan”.⁵²

Bartoldning bir qator asarlarida O'rta Osiyo xalqlarining, xususan o'zbek xalqining o'tmishiga, uning etnik tarixiga oid juda ko'p materiallar mavjud. Uning asarlarida Movorounnahr va unga tutash mintaqalarda qadimdan va ilk o'rta asrlarda turg'un yashab kelgan turkiy aholining iqtisodiy va ijtimoiy hayoti keng yoritilgan. O'zbek xalqi etnogenezini o'rganishda tarixiy manbalarning o'rni juda muhim, chunki bizgacha yetib kelgan ma'lumotlar xalqimizning shakllanish bosqichlarini aniq ko'rsatib beradi. Masalan, eng qadimgi manba hisoblangan "Avesto"dan tortib, Axomoniylar davridagi qoyatosh bitiklari, qadimiy yunon mualliflarining asarlari hamda Xitoy yilnomalarigacha bo'lgan barcha yozma yodgorliklar o'zbek davlatchiligi va etnik tarixini tushunishda poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, mahalliy tillardagi qadimiy yozuvlar, IX-XII asrlarda yashab o'tgan mashhur geograf va sayyohlarning kundaliklari, XII-XIV asrlarga oid mahalliy mualliflar asarlari bu jarayonning naqadar murakkab va boy ekanligini isbotlaydi. Keyingi davrlarda, ya'ni XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo hududida ijod qilgan tarixchilar, keyinchalik esa XIX asrning o'lkashunos olimlari va rus mualliflarining izlanishlari tufayli xalqimizning kelib chiqishi haqidagi qarashlar yanada kengaygan. XX asrning boshidan 50-yillarigacha bo'lgan davrdagi mashhur sharqshunoslarning tadqiqotlari, keyinroq 50-90-yillardagi ilmiy faoliyat va nihoyat mustaqillik yillaridagi zamonaviy yondashuvlar o'zbek etnosining shakllanish tarixini tizimli ravishda o'rganish imkonini berdi.

Bu masalada akademik A.Asqarov, K.Shoniyozov, I.Jabborov, S.Abashin va D.Hoshimova kabi olimlarning xizmatlari katta bo'lib, ular o'z asarlarida tarixiy manbalarni turli guruhlariga bo'lib tahlil qilishgan. Masalan, K.Shoniyozov manbalarni til xususiyatlariga ko'ra Xitoy, arab-fors va turkiy hamda yangi davr antropologik-arxeologik ma'lumotlariga ajratgan bo'lsa, A.Asqarov ularni mazmuniga ko'ra yetti xil guruhga bo'lib o'rgangan. Shuningdek, etnologik tadqiqotlarda Iso Jabborov Markaziy Osiyo xalqlarining etnografiyasiga oid manbalarni 11 ta guruhda tahlil qilganini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, o'zbek xalqining shakllanishi bir necha bosqichdan iborat bo'lib, bu jarayon qadimgi ibtidoiy qabilalardan boshlanib, keyinchalik

⁵² Karim Shoniyozov "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni". Toshkent - 2001. 48-bet.

elat va xalq darajasiga yetgan. Bizning tadqiqotimiz aynan mana shu etnogenez bosqichini, ya'ni turli etnik komponentlarning yagona bir xalq bo'lib birlashishigacha bo'lgan davrni o'rganadi. Bu borada 1941-yilda A.Yu.Yakubovskiy tomonidan ishlab chiqilgan milliy avtohtonizm nazariyasi xalqimizning shu zaminning tub aholisi ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab, panturkistik yoki boshqa soxta qarashlarga chek qo'ygan edi. Hozirgi kunda bu kabi izlanishlar nafaqat o'zbek xalqi, balki butun Markaziy Osiyo aholisining umumiy tarixini, dinini va madaniyatini teranroq anglashga yordam bermoqda.

O'zbek xalqining shakllanish tarixini o'rganishda nafaqat yozma manbalar, balki keng ko'lamli ilmiy yondashuvlar ham muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, bu mavzu bo'yicha dunyo olimlarining qarashlari turlicha bo'lib, ilmiy adabiyotlarni bir necha asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin. Masalan, sobiq ittifoq davrida yaratilgan asarlardan tortib, mustaqillik yillaridagi mahalliy tadqiqotlar va xorijiy olimlarning izlanishlarigacha bo'lgan barcha manbalar o'zbek etnosining o'tmishini ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, XX asrning 40-50-yillarida A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov va Ya.G'ulomov kabi yirik olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar xalqimizning tub joyli ekanligini isbotlashda asosiy burilish nuqtasi bo'lgan.

Keyinchalik, 60-90-yillarda bu an'ana davom ettirilib, V.V.Bartold, B.X.Karmisheva va K.Shoniyozov kabi mutaxassislar etnik tarixni yanada chuqurroq tahlil qilishdi. Mustaqillikdan so'ng esa Sh.Zokirov, A.Asqarov va H.Mamadaliyev kabi olimlarimiz yangicha qarashlar bilan mavzuni boyitishdi. Bu jarayonda har bir tadqiqotchi manbalarni o'ziga xos tarzda guruhlaganini ko'ramiz. Masalan, akademik A.Asqarov asarlarida ma'lumotlarni yetti xil turkumga ajratib tahlil qilgan bo'lsa, etnolog A.Ashirov so'nggi yillarda amalga oshirilgan barcha ishlarni shartli ravishda uchta yirik guruhga bo'lib o'rgangan.

O'zbek etnosining shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayon bo'lib, u ibtidoiy qabilalardan boshlanib, elat va xalq darajasiga ko'tarilgan. Bu borada olimlar o'rtasida uch xil asosiy qarash mavjud: birinchisi – xalqimizning qadimdan shu zaminda yashagan turkiy va eroniyzabon qabilalar aralashuvidan paydo bo'lgani, ikkinchisi – Shayboniylar bilan bog'liq kechroq shakllanish nazariyasi va uchinchisi – akademik Yakubovskiy tomonidan ilgari surilgan, mahalliy ildizlarga tayanadigan milliy avtohtonizm g'oyasidir. Ushbu ilmiy qarashlarni o'rganish orqali bugungi kunda mintaqamizdagi barcha xalqlarning umumiy tarixi, madaniyati va diniy birligi qanchalik mustahkam ekanligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi shunchaki o'tmishni eslash emas, balki bugungi milliy o'zligimizning poydevorini anglash demakdir. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, millatimizning shakllanishi bir necha ming yillik arxeologik, antropologik va yozma yodgorliklar bilan uzviy bog'liq bo'lib, u turli davrlarda siyosiy va mafkuraviy bosimlarga qaramay o'z hayotiyeligini saqlab qolgan. Tadqiqotlarimizning bosh maqsadi — xalqimizning shakllanishidagi har bir etnik qatlamni xolis baholash va tarixiy haqiqatni tiklashdir.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va manbalarning ko'pligi o'zbek millatining naqadar boy madaniy merosga ega ekanligidan dalolat beradi. Bugungi globallashuv sharoitida o'z tariximizni bunday fundamental asoslarda o'rganishimiz, yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirish bilan birga, mintaqaviy hamjihatlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Zero, o'z ildizlarini chuqur bilgan xalq har qanday ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladi va o'zining kelajakdagi rivojlanish yo'lini aniq belgilay oladi. O'zbek xalqi etnologiyasi ko'p asrlik tarixiy jarayonlar, turli xil etnik aralashuvlar va boy madaniy meros asosida shakllangan.

Bu jarayonlarda turli xalqlar va madaniyatlarning o'zaro ta'siri muhim rol o'ynab, bugungi kunda o'zbek xalqining o'ziga xos milliy qiyofasini vujudga keltirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yakubovskiy A. Y. История народов Узбекистана. – Toshkent. 1950. – С. 8.
2. Asqarov A. "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" Toshkent 2007. 239-bet
3. Rahim Masov. История с грифом. «Совершенно секретно». Dushanbe. 1995. 20-bet.
4. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy "Buxoro tarixi" fors-tojik tilidan tarjima A. Rasulov. Toshkent, 1996.
5. K.Shoniyozov "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni". Toshkent – 2001. 48-bet.